IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

SAMARQAND VILOYATIDA LEKSIK DIALEKTIZMLARNING LINGVOAREAL TALQINI

Payzullayeva Rano Makhmudovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti, dotsent (PhD)
R_Fayzullayeva@gmail.com , +99891-334-51-46

Ochilov Suhrob Akram o‘g‘li
Navoi innovatsiyalar universiteti, talaba
Suhrobochilov04@gmail.com, +99897-912-40-47
https://doi.org/10.5281/zenodo.21876292

Annotatsiya

Bu maqolada o‘zbek adabiy tilining shakllanishida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan qipchoq lahjasining Samarqand viloyati hududida keng yoyilgan leksik birliklari, ularning ma’nolari, qo‘llanish doirasi, uslubi va shakllari, izohlari haqida fikr yuritiladi. Lahjalarda saqlanib qolgan so‘zlar aslida milliy tilimizning lug‘atlarini boyitishi mumkinligi tahlillar natijasida ochib beriladi. Misol tariqasida keltirilgan namunalar, asosan, jonli xalq tilidan olingan bo‘lib, hududda yashovchi insonlar so‘zlashuviga tayangan holda keltiriladi.

Kalit so‘zlar: qipchoq, dialekt, sheva, lahja, termin, atama, jamiyat, neologizm, soha, adabiy til, olmosh, ravish, miqdor, evfimizm, chorvachilik, dehqonchilik.

ЛИНГВОРЕАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лексические единицы кыпчакского диалекта, занимающего уникальное место в формировании узбекского литературного языка и распространенного в Самаркандской области; анализируются их значения, сфера употребления, стилистические особенности, формы и толкования. Проведенный анализ показывает, что слова, сохранившиеся в диалектах, способны обогатить словарный состав нашего национального языка. Приведенные примеры взяты преимущественно из живой народной речи и основаны на языковой практике жителей данного региона.

Ключевые слова: кыпчакский, диалект, термин, общество, неологизм, сфера, литературный язык, местоимение, красноречие, количество, эвфемизм, животноводство, сельское хозяйство.

LINGUOREAL INTERPRETATION OF LEXICAL DIALECTISMS IN THE SAMARKAND REGION

Annotation

This article discusses the lexical units of the Kipchak dialect, which has a unique place in the formation of the Uzbek literary language, widespread in the Samarkand region, their

meanings, scope of application, style and forms, and explanations. The analysis reveals that the words preserved in the dialects can actually enrich the dictionaries of our national language. The examples given as examples are mainly taken from the living folk language and are based on the speech of people living in the region.

Keywords: Kipchak, dialect, dialect, term, term, society, neologism, field, literary language, pronoun, eloquence, quantity, euphemism, livestock, agriculture.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili o‘zining keng lahja va shevali xususiyati bilan boshqa turkiy tillarga nisbatan farqlanib turadi. Tilshunos olimlarimiz A. Aliyev hamda K. Nazarovlarning “o‘zbek tili ma’lumotnomasi” kitobida keltirilgan “Turkiy tillar orasida o‘zbek tili o‘zining murakkab dialektal xususiyatlarga egaligi va bu dialektlar bir-birlaridan ayrim fonetik, morfologik hamda leksik jihatdan farqlanishi bilan xarakterlanadi…”[1; 8] deya bayon qilingan fikrni shu o‘rinda ilova qilishimiz mumkin.

O‘zbek tilining ko‘pshevalilik xususiyatini qulay, barcha uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida adabiy til qoidalari va tizimi ishlab chiqilgan. Adabiy tilga ta’rif berar ekanmiz, “Adabiy til jonli til — dialekt, sheva yoki shevalar negizida qoliplanib, ma’lum bir normaga solingan, yozuv bilan ta’minlangan, funksional qo‘llanish darajasi keng bo‘lgan til…”[1; 5] deya olimlarimiz tomonidan aytilgan ma’lumotni yuqoridagi fikrimizga isbot qilib keltirishimiz mumkin.

O‘zbek adabiy tilini tashkil etuvchi dialektlar o‘zining fonetik, leksik va ba’zi belgilari bilan boshqa turkiy tillarga yaqin va o‘xshashlik holatini yuzaga chiqaradi. Masalan o‘g‘uz lahjasining shevalarida ko‘proq turk, ozarboyjon tillariga mutanosiblik kuzatilsa, qipchoq lahjasi qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur hamda yana bir qancha qardosh tillarga yaqin xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi

Qipchoq shevasi o‘zining o‘zbek adabiy tilining shakllanishida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan qadimiy, xalq tili bilan aytganda “jaydari” shevasi sifatida o‘rganilib kelgan. Bu shevaning adabiy tilda ulushi ancha salmoqli bo‘lsa ham adabiy tildan ba’zi leksik, semantik va fonetik farqlar bilan ajralib turadi. Bu lahjaning elementlari o‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida, bundan tashqari qo‘shni qardosh davlatlarda ham hamon xalq orasida keng iste’molda.

Qipchoq dialektida faol qo‘llanadigan ayrim leksemalar o‘zbek adabiy tilida muqobil variantlariga ega bo‘lsa, ba’zi so‘zlar faqat qipchoq lahjasida mavjud va adabiy tilda bu so‘zlarning ma’nosini beradigan leksemalar mavjud emas. Bunday leksemalar asosan, sohaga oid terminlar bo‘lib, chorvachilik, dehqonchilik sohasidagi faol atamalardir. Ayni maqolada qipchoq shevasidagi ham ma’no jihatdan aynan mos keluvchi muqobil so‘zlar, ham faqat qipchoq shevasigagina xos bo‘lgan so‘zlarni Samarqand viloyatining Ishtixon tumani misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan “ozroq”, “biroz”, “picha” kabi ravish so‘z turkumiga oid o‘lchov-miqdorga tegishli bo‘lgan so‘zlarni qipchoq dialektal lug‘atida “gartak” yoki “giytak” shaklidagi varianti bor. Bu so‘z aynan yuqorida sanalgan ravishlar ifodalagan ma’noni ifodalaydi. Samarqand viloyatining ko‘plab tumanlarida, xususan, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on,

Qo‘shrabot, Paxtachi, Urgut tumanlarida yashovchi aholi bu dialektdan adabiy dubletlariga nisbatan ko‘proq qo‘llashadi:

*Bolamg‘a **gartak** qarab tur* – bolamga biroz qarab tur;
***Gartak** kutib tursin* – ozroq kutib tursin;
***Giytak** tuz op ke* – ozroq tuz olib kel.

Adabiy tilda ish-harakatning tez va oson bajarilish darajasini ko‘rsatuvchi “-a qol” ko‘makchi fe’li ham qipchoq lahjasida affeks holiga kelib, -g‘ay/-g‘oy holida keng qo‘llanadi: boraqol – borag‘ay, olaqol – olag‘ay; ko‘raqol – ko‘rag‘ay.

Bosim To‘ychiboyev hamda Bo‘riboy Hasanovlar hammaualliffligidagi “O‘zbek dialektologiyasi” asarida bu ko‘makchi fe’l qo‘llanishiga nisbatanga shunday ta’rif beriladi: “O‘zbek adabiy tilidagi “qol” ko‘makchi fe’li ma’nosi qipchoq lahjasida qo‘shimcha shakldagi “g‘ay” ko‘makchi fe’li bilan ifodalanadi: boraqol – barag‘ay, kelaqol – kelag‘ay, yozaqol – yozag‘ay” [1; 84].

Samarqand viloyatining qo‘shrabot tumanida, Ishtixon tumaning qisman Shimoliy qishloqlari, jumladan, Shamolli, Beksariq, Qovunchi (Qo‘shrabot) qishloqlarida, Ishtixon tumanining Pitov qishlog‘ida o‘zbek-qipchoq lahjasining uyg‘ur shevasi elementlari ham saqlanib qolgan. Masalan biz yuqorida ko‘rib chiqqan ish-harakatning tez va oson bajarilish darajasini ko‘rsatuvchi “-a qol” ko‘makchi fe’lining “g‘ay” shaklidan tashqari “qo‘y” shakli iste’molda tor doirada bo‘lsa ham (asosan, yoshi katta kishilar tilida) uchrab turishi kuzatiladi.

Solishtirish uchun:

O‘zing borib kelaqolsang bo‘lardi – *O‘zing **borib kela qo‘y**sang bo‘liydi*;

Hammasini beraqol - *Hammasini **bera qo‘y.***

Bu ma’lumot o‘zbek tillshunoslik maktabida, ayniqsa, dialektologik qarashlarining shakllanishiga munosib hissa qo‘shgan olim G‘ozi Olim Yunusov “O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” ilmiy asarida ham alohida tasnif keltiradi: “Mərgən ajtadь e:ki mollaqa, sen ucup kettiŋ, sen teŋiza kettiŋ, e:ki ortada qa:z zaja вolar, dep, men jep qoja qojdьm…”[2; 51] (Ma’nosi: Mergan aytadi ikki mullaga, sen uchib ketding, sen dengizga ketding. Ikki o‘rtada yegulik uvol bo‘lar, deb, men yeb qo‘ya qoldim)

O‘zbek adabiy tilidagi belgilash olmoshining jamlovchi ma’nosini ifodalashda qipchoq lahjasida adabiy tildagi variantidan farqli bir so‘z ishlatiladi. “Javlik” yoki “jovlik” so‘zi “hamma” olmoshiga mos keladi. Qipchoq dialektining ayrim hududiy shakllarida “v” undoshi qo‘llanmasdan, uning o‘rniga “au” yoki “ou” tovushlari qo‘llangani bois, (hovli – houli, birov – birau, avval – auual) bu dialektal olmoshning uchinchi “jaulik” variani ham xalq tilida uchrab turadi. Ammo bu dialektning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, odatda “hamma” so‘ziga qo‘shiladigan kelishiklarning barchasini o‘zida ifodalab keladi. Ya’ni bu so‘zdan keyin kelishik qo‘shimchalari qo‘llanmasa ham ularning ma’nosi saqlanib qoladi:

*Hamma<u>ni</u> chaqirib kel – **jaulik** choqirib ke;*

*Hammadan ol – **jaulik** o;*

*Hammaga sovg‘a oldim – **jaulik** soug‘a oldim.*

Ammo bu faqat kelishiklar ma’nosini saqlagan holatdagina emas, belgilash olmoshining hech qanday affikslar qo‘shilmagan holatini yoki kelishiklarsiz shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilganlik ma’nosini ham ifodalaydi:

Hamma shu yerda – ***jaulik** shu yerda;*

Bari keldi – ***jaulik** keldi;*

Barchamiz tayyormiz – ***jaulik** tayyormiz.*

Olmosh so‘z turkumigaoid yana bir so‘zning butunlay boshqa shaklda ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘z ko‘rsatish olmoshi bo‘lib, *ana, mana* olmoshlari bilan bir xil ma’noni beruvchi ***hayla*** yoki ***hiyla*** leksemasidir. Bu so‘z ham Samarqand viloyatining Ishtixon hamda Kattaqo‘rg‘on tumanlarining qishloq hududlarida ko‘rsatish olmoshini ifodalovchi asosiy leksema hisoblanadi.

Ana, olib keldi – ***Hiyla**, op keldi;*

Dadang qayerda? – Ana – *Dadang qayerda? – **Hayla;***

Ana kitoblarim – ***Hayla** kitoblarim.*

“Hayla” so‘zi faqat og‘zaki nutqda saqlanib qolganligi uchun uning har ikkala formasi ham xalq orasida birday qo‘llanadi. Uning aynan bitta qolip sifatida qabul qilingan qat’iy shakli yo‘q. Xususan, Navoiy viloyatining Karmana tumani hududida bu so‘zning “haylo” shaklini ham uchratishimiz mumkin. Bu variant ham Ishtixon hamda Kattaqo‘rg‘on hududlarida qo‘llanuvchi ko‘rsatish olmoshi bilan bir xil ma’no ifodalaydi.

Ana, turibdi-ku – ***Haylo**, turibdi-ku;*

Borib qarang, ana – *Borib qarang, **haylo.***

Qipchoq dialektida ravish so‘z turkumiga mansub bo‘lgan darajanining ortiqligini ifodalovchi “juda”, “rosa”, “toza” so‘zlariga parallel tarzda “bejiy” leksemasi bor. Bu leksema bugungi kunda juda kam qo‘llanayotganligi bois, aholi orasida deyarli iste’moldan chiqib ketgan. Ammo Ishtixonning Pitov qishlog‘i, Kattaqo‘rg‘onning Sebo‘ston qishloqlarida keksalar va “O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” rtayosh aholi tilida uchrab turadi. Bu so‘z faqatgina belgining ortiqligini bildiradi. Ya’ni, “juda oz”, “rosa yomon”, “rosa xafa” kabi so‘z birikmalarining tarkibidagi miqdorning haddan ortiqligini ifodalovchi ravishlar o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi. Faqat natijaning ortiqlik ma’nosini saqlagan holda qo‘llash mumkin. Ta’rif keltirish joizki, aytish mumkin bo‘lsa, **“bejiy”** leksemasi faqat evfemizmik ma’nodagi so‘zlar bilan qo‘llanishi mumkin. Masalan: “***Bejiy** chiroyli”, “**bejiy** yaxshi ish bo‘ptida”, “**bejiy** xursand qilding”* kabi butun so‘z birikmasining qurilishida mavjudlikning ortiqligi, ijobiy xususiyatning saqlanganligi eng asosiy xususiyatlardan biridir. Bu so‘z ba’zida haddan oshganlikni kesatiq va kinoya ma’nosida ham ifodalab kelishi mumkin:

Bejiy *ko‘p gapirasanda* – rosa ko‘p gapirasanda;

Bejiy *qipsan* – qovun tushuribsan.

Chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq ko‘plab atama va nomlar ham adabiy tilimizga aynan qipchoq lahjasidan kirib kelgan va ba’zi atamalar faqatgina ushbu lahjada so‘zlashuvchilarning lug‘at boyliklarida qo‘llanadi. Masalan, adabiy tilda to‘siq yoki chegarani ifodalovchi panjara so‘zi mavjud. U asosan temirdan yasaladi. Lekin qipchoq lahjasida muloqot qiluvchi Ishtixon tumaning Pitov, Boytubi qishloqlari; Kattaqo‘rg‘on tumanining Sebo‘ston, Bo‘zaxona, Andoqsoy qishloqlari; Qo‘shrabot tumanining bir qator qishloqlarida panjaraning yog‘ochlardan yasalgan variantini “erganak” yoki “yerganak” tarzida qo‘llashadi.

Masalan*: Qo‘ylardi* ***yerganag****ini yoxshilab jop* – Qo‘ylarning darvozasini yaxshilab yop;

G‘o‘rani ***yerganag****i sinibdi* – Qo‘ra (yoki qo‘ton)ni darvozasi sinibdi;

g‘o‘ra yasa – panjaradan qo‘ra (yoki qo‘ton) yasa.

Bunday panjaralar ko‘p hollarda chorva mollarining yozgi va kuzgi qo‘ralarini qurishda ishlatiladi. Ba’zida qishgi, ya’ni, devordan qurilgan qo‘ralarga darvoza sifatida ham foydalanadi. Bu atamalar asosan, faqatgina xalq tilida mavjud bo‘lib, bugunga qadar birorta ilmiy yoki adabiy asarda duch kelmadik.

Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi chekka qishloq hududlarida ***“uvat”*** degan leksema bor. Bu leksemaning xalq tilida “o‘r” shakli ham ba’zida uchrab turdi. Qishloq aholisi orasida hududiy chegarani belgilash uchun yoki ekinzorlarni hayvonlardan asrash uchun yer chimidan o‘yib, ketma-ketlikda ost-ust qilib devor holida taxlanadi. Bu ish hayvonlar oshib o‘tolmaydigan balandlik hosil bo‘lgancha davom ettiriladi.

Chimli devordan sakrab o‘tdi – ***uvat****dan sakrab o‘tdi;*

Chimli devorning orqasida turibdi – ***uvat*** *orqasida turibdi;*

Chimli devordan qarang – ***uvat****dan qarang.*

Ba’zida odamlar shunday chegaraviy devorlar bilan bir necha o‘n gektarlab joylarni o‘rab olishadi. Bu mashaqqatli devorlardan ba’zida chorva mollarini qamaydigan qo‘ralar ham tayyorlanishi mumkin. Bu devor yomg‘irlar yuvib ketishi va boshqa tashqi omillar ta’sirida unchalik uzoq muddat o‘z vazifasini bajara olmasa-da ancha mustahkam devor bo‘ladi. Ayrim hollarda chimlarning oralariga katta hajmdagi toshlar ham terilishi mumkin.

Ishtixon hududida hozirgacha ham qo‘llanadigan bu sun’iy to‘siqlardan asrlar davomida foydalanib kelishgan. Ayrim joylarda bir necha asrlar oldin tiklangan shunday to‘siqlarning qoldiqlari hozir ham uchrab turadi.

O‘zbek dialektologiyasining lug‘ati fonetik, leksik hamda grammatik jihatdan anchagina boy va qadimiydir. Ammo bu birliklar faqatgina hududlar kesimida qolib ketmoqda va adabiy tilga kirib borish darajasi juda ham past. Aslida adabiy tilimizning lug‘at boyligini

shakllantirishda tilimizning uch negiz lahjalariga murojaat qilish kerak. Bu nafaqat tilimizning lug‘at boyligini oshiradi, balki, tilimizning sofligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda jamiyatimizga kirib kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalashda ko‘proq neologizmlarga murojaat qilmasdan tilimizning asosini tashkil etuvchi dialektal qatlamdan olish va tilning sofligiga e’tibor qaratish lozim.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasininig birinchi prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ona tilimiz haqida bayon qilgan fikrini ilova qilmoqni o‘rinli deb topdik: “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”[4; 83]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A, Nazarov K. O‘zbek tili ma’lumotnomasi. – Toshkent: Fan, 1992.
2. To‘ychiboyev B, Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2004.
3. G‘ozi Olim Y. O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. – Toshkent: O‘zSSR, 1935.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” TOSHKENT “Ma’naviyat” – 2010